

О‘QITUVCHI PSIXOLOGIYASI

Kattaqo‘rg‘on davlat
pedagogika instituti

Filologiya va ijtimoiy fanlar fakulteti
1-bosqich

Talabasi
Yozilova Sevinch

Annotatsiya: “O‘qituvchi psixologiyasi” mavzusi pedagogning kasbiy faoliyatida psixologik bilim va ko‘nikmalarning o‘rni hamda ahamiyatini o‘rganadi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim shaxs hisoblanadi. Shu sababli uning psixologik holati, emotsional barqarorligi, muloqot madaniyati va empatiya qobiliyati ta’lim jarayonining samaradorligini belgilaydi. Ushbu mavzu o‘qituvchining o‘zini anglash, stressga chidamlilik, motivatsiya va ijtimoiy munosabatlarni boshqarish kabi jihatlarini chuqur tahlil qiladi. Natijada, o‘qituvchi shaxsining psixologik tayyorgarligi ta’lim sifatini oshirishda asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Аннотация : Тема «Психология учителя» изучает роль психологических знаний и навыков в профессиональной деятельности педагога. Учитель является не только источником знаний, но и важной личностью, влияющей на развитие учащихся. Поэтому его эмоциональная устойчивость, уровень эмпатии, культура общения и психологическое состояние напрямую влияют на эффективность образовательного процесса. Данная тема рассматривает такие аспекты, как саморефлексия учителя, стрессоустойчивость, мотивация и управление межличностными отношениями. В итоге психологическая готовность учителя выступает ключевым фактором повышения качества образования.

Annotation:

The topic “Teacher Psychology” explores the role of psychological and skills in a teacher’s professional activity. A teacher is not only a source of knowledge but also an important figure influencing students’ personal development. Therefore, emotional stability, empathy, communication skills, and psychological well-being significantly determine the effectiveness of the educational process. This topic examines aspects such as self-awareness, stress resistance, motivation, and interpersonal relationship management. Ultimately, the psychological readiness of a teacher becomes a key factor in improving the quality of education. The topic “Teacher Psychology” explores the role of psychological knowledge and skills in a teacher’s professional activity. A teacher is not only a source of knowledge but also an important figure influencing students’ personal development. Therefore, emotional stability, empathy, communication skills, and psychological well-being significantly determine the effectiveness of the educational process. This topic examines aspects such as self-awareness, stress resistance, motivation, and interpersonal relationship management. Ultimately, the psychological readiness of a teacher becomes a key factor in improving the quality of education.

Kalit

so‘zlar: O‘qituvchi psixologiyasi, pedagogik faoliyat, emotsional barqarorlik, empatiya, motivatsiya, muloqot madaniyati, stressga chidamlilik, shaxsiy rivojlanish, ta’lim jarayoni, kasbiy kompetensiya.

Ключевые

слова: Психология учителя, педагогическая деятельность, эмоциональная устойчивость, эмпатия, мотивация, культура общения, стрессоустойчивость, личностное развитие, образовательный процесс, профессиональная компетентность.

Keywords:

Teacher psychology, pedagogical activity, emotional stability, empathy, motivation, communication culture, stress resistance, personal development, educational process, professional competence.

Kirish: XXI asrda ta’lim tizimi tubdan yangilanib, u nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan murakkab ijtimoiy institutga

aylandi. Bunday sharoitda o'qituvchi shaxsi ta'lim jarayonining markaziy figurasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o'qituvchi o'quvchilarga faqat nazariy bilimlarni yetkazibgina qolmay, balki ularning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy xulq-atvori va psixologik shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois o'qituvchi faoliyatini chuqur anglashda uning psixologik jihatlarini o'rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. O'qituvchi psixologiyasi pedagogning ichki ruhiy dunyosi, emotsional holati, motivatsiyasi, kasbiy o'zini anglash darajasi hamda o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish mexanizmlarini o'rganadi. Zamonaviy pedagog nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki turli psixologik vaziyatlarni tahlil qila olishi, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim berishi, ziddiyatli holatlarni konstruktiv hal eta olishi lozim. Ayniqsa, o'quvchilarning yosh va psixologik rivojlanish bosqichlaridagi farqlar, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarining rang-barangligi o'qituvchidan yuqori darajadagi psixologik kompetensiyani talab etadi. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning axborotga bo'lgan munosabati, fikrlash uslubi va ijtimoiy xulqi sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Bu esa o'qituvchining an'anaviy rolini kengaytirib, uni murabbiy, psixolog, fasilitator va motivator sifatida faoliyat yuritishga undaydi. Shu bilan birga, o'qituvchining o'zi ham doimiy psixologik bosim, kasbiy zo'riqish va emotsional charchoq kabi omillar ta'sirida bo'lishi mumkin. Demak, o'qituvchi psixologiyasini o'rganish nafaqat o'quvchilar bilan ishlash samaradorligini oshirish, balki pedagogning o'z psixologik salomatligini saqlash nuqtai nazaridan ham muhimdir.

Mazkur maqolaning maqsadi o'qituvchi psixologiyasining nazariy asoslarini tahlil qilish, uning pedagogik faoliyatdagi o'zni va ahamiyatini yoritish hamda zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchining psixologik kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini asoslab berishdan iboratdir. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlash hamda barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Asosiy qism: "O'qituvchi - deydi **Al-Forobiy** - aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega

bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq, ifodalay olishni bilmog‘i zarur”. U o‘z fikrini davom ettirib, “O‘qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o‘xshaydi, shu sababli o‘qituvchi eshitgan va ko‘rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq, ifodalab berishni bilmog‘i lozim. Shu bilan birga o‘z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo‘lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi” deb ta’kidlaydi. **Pedagog** (yun. paidagogos — tarbiyachi) — pedagogika mutaxassisi; bolalar va yoshlarni tarbiyalash va o‘qitish bilan shug‘ullanuvchi, shu soha bo‘yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan shaxsdir. O‘qituvchining asosiy sifatlari: Kuzatuvchan, sezgir, notiq, tashkilotchi, adolatli, intellect, tashabbuskor. O‘qituvchi kompetentligi-**Kompetentlik** - inglizcha “**competence**” tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita “qobiliyat” ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi. Bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish. O‘z sohasini, ishining ustasi bo‘lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish. O‘qituvchi kompetensiyasi-Standart kompetensiya - ushbu faoliyatga oid doimiy va odatiy vazifalarni bajarish qobiliyati. Asosiy kompetensiya - ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni bajarish qobiliyati. Yetakchi kompetensiya - kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyati. Kasbiy kompetensiya modeli-Kasbiy qadriyat, Kasbiy bilim va tushuncha, Kasbiy ko‘nikma va malaka. O‘rtamiyona o‘qituvchi bayon qiladi. Yaxshi o‘qituvchi tushuntiradi. Yo‘q o‘qituvchi ko‘rsatadi. Buyuk o‘qituvchi ruhlantiradi. U. Uord.

PEDAGOGIK

QOBILIYAT

A.I.Sherbakov o‘qituvchi shaxsini 6 ta kasbiy tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta’kidlab o‘tadi: 1. Yuksak saviyadagi bilim va ma’naviyat. 2. Yo‘nalishning aniq ifodalanganligi. 3. Yuksak axloqiy hislarning mavjudligi. 4. Yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik. 5. Qat’iy va silliq xarakter. 6. Pedagogik

qobiliyat. Rus psixologi **F.N.Gonobolin** pedagogik qobiliyatlarini quyidagi turlariga ajratib o'rganishni taklif qiladi. 1. Didaktik qobiliyatlar. 2. Akademik qobiliyat. 3. Perseptiv qobiliyat. 4. Nutqiy qobiliyat. 5. Tashkilotchilik. 6. Avtoritar. 7. Kommunikativ. 8. Pedagogik xayol. 9. Diqqatni taqsimlash qobiliyatlari hisoblanadi. Psixolog professor E.G'oziyev tomonidan tavsiya etilgan zamonaviy o'qituvchining pedagogik qobiliyat qirralari quyidagilardan iborat. Didaktik qobiliyat-(Oson yo'l bilan murakkab bilimlarni tinglovchilarga tushuntirish uquvchanligi) a) o'quv materialini aniq tushunarli qilib o'quvchilarga yetkaza bilish; b) bolalarda fanga nisbatan qiziqish uyg'ota olish, ularning mustaqil fikrlashlarini faollashtirish; v) o'quvchilarni yangi tushunchani izlashtirishga tayyorlash, ularning har birining tayyorgarlik darajasini bilish; g) ta'lim-tarbiya jarayonida har bir bolaning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda, individual yondashish, mazmunini bolalar imkoniyat, ehtiyoj va tayyorgarlik darajalari bilan muvofiqlashtira olish. Akademik qobiliyat-(Barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimga ega bo'lishlik). a) o'zi dars beradigan fanning ilmiy-nazariy asoslarini mukammal bilish; b) mutaxassisligi bo'yicha fan yangiliklarini doimiy ravishda o'zlashtirib, o'zining nazariy tayyorgarlik darajasini muntazam ravishda o'stirib borish; v) o'z fani bo'yicha ijodiy izlanish, kichik bo'lsa-da, ilmiy tadqiqot ishi olib borish (tajriba-sinov, dastur, darsliklar ustida ishlash). Nutqiy qobiliyat- (ixcham, ma'noli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq, nutqning jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilish. **PEDAGOGIK MAHORAT**- Dars berish mahorati. Tarbiyalash mahorati. O'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta'minlaydigan shaxsiy sifatleri. Ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati. Pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlari- **Mahorat** (arab. "mahorat" – mohirlik, ustalik, epchillik) – bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish.. **Mahorat** (arab. "mahorat" – mohirlik, ustalik, epchillik) – bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish. **Pedagogik mahorat** – pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va subyektiv

jihtadan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi. Pedagogik kreativlik- Pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati. Kreativlik (lot., ing. "create" - yaratish, "creative" - yaratuvchi, ijodkor)-individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. O'qituvchi psixologiyasi pedagogik faoliyatning ichki mexanizmlarini, ya'ni o'qituvchining ruhiy holati, hissiy kechinmalari, kasbiy motivatsiyasi va o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarini ilmiy asosda o'rganadi. Ushbu yo'nalish o'qituvchining faqat bilim beruvchi emas, balki murakkab psixologik jarayonlarni boshqaruvchi shaxs ekanligini ko'rsatadi. Chunki ta'lim jarayonida har bir o'quvchi o'ziga xos xarakter, temperament, qiziqish va ehtiyojlarga ega bo'ladi, bu esa o'qituvchidan individual yondashuvni talab qiladi. Avvalo, o'qituvchining emotsional barqarorligi pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Dars jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlar – o'quvchilarning intizomsizligi, bilim darajasidagi tafovutlar, vaqt bosimi yoki tashqi omillar – o'qituvchining hissiy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Agar o'qituvchi o'z his-tuyg'ularini boshqara olsa, vaziyatni xotirjamlik bilan hal qilsa, bu nafaqat dars sifatini oshiradi, balki o'quvchilarga ham ijobiy psixologik muhit yaratadi. Aks holda, salbiy emotsiyalar o'quvchilarga ko'chib, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini pasaytirishi mumkin. Ikkinchidan, o'qituvchining empatiya qobiliyati alohida ahamiyatga ega. Empatiya – bu boshqalar his-tuyg'ularini tushunish va ularga hamdard bo'lish qobiliyatidir. Pedagog o'quvchining ichki holatini his qila olgandagina uning ehtiyojlari va muammolarini to'g'ri anglaydi. Masalan, o'quvchi darsda faol bo'lmasa, bu faqat dangasalik emas, balki psixologik muammo, o'ziga ishonchsizlik yoki oilaviy holatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shunday vaziyatlarda o'qituvchining to'g'ri yondashuvi o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini tiklashda muhim rol o'ynaydi. Uchinchidan, pedagogik muloqot madaniyati

o'qituvchi psixologiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Samarali muloqot o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'zaro ishonch va hurmatni shakllantiradi. O'qituvchi nutqining ravonligi, tushunarli bo'lishi, ohang va intonatsiyaning to'g'ri tanlanishi o'quvchilarni darsga jalb etishda muhim vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilar fikrini tinglay olishi, ularga erkin fikr bildirish imkonini yaratishi ham muhimdir. Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. To'rtinchidan, o'qituvchining kasbiy motivatsiyasi va o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishi uning faoliyat sifatini belgilaydi. Yuqori motivatsiyaga ega o'qituvchi doimo yangi bilimlarni o'rganishga, innovatsion metodlarni qo'llashga va o'z ustida ishlashga harakat qiladi. Bu esa ta'lim jarayonining zamonaviy talablar asosida tashkil etilishiga xizmat qiladi. Aksincha, motivatsiyaning pasayishi kasbiy charchoq (burnout) holatiga olib kelishi mumkin, bu esa o'qituvchining samaradorligini sezilarli darajada kamaytiradi. Shuningdek, o'qituvchining stressga chidamliligi ham muhim psixologik omil hisoblanadi. Ta'lim jarayonida doimiy ravishda mas'uliyat, nazorat, baholash va ijtimoiy bosim mavjud bo'ladi. Agar o'qituvchi stressni boshqara olmasa, bu uning salomatligiga va kasbiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'qituvchilar uchun psixologik treninglar, relaksatsiya usullari va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Yana bir muhim jihat – bu o'qituvchining shaxsiy fazilatlari va pedagogik taktidir. Adolat, sabr-toqat, bag'rikenglik, mas'uliyatlilik kabi sifatlar o'qituvchi shaxsining ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagogik takt esa o'quvchilar bilan munosabatda noziklik, ehtiyotkorlik va vaziyatga mos ravishda to'g'ri qaror qabul qilishni anglatadi. Bu sifatlar o'qituvchining obro'sini oshirib, o'quvchilar orasida ijobiy muhit yaratadi.

Xulosa:

O'qituvchi psixologiyasi zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas va hal qiluvchi tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki pedagogning nafaqat bilim darajasi, balki uning psixologik tayyorgarligi, shaxsiy fazilatlari va emotsional holati ham ta'lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi – bu shunchaki bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning ichki dunyosini anglay oladigan, ularni qo'llab-

quvvatlaydigan va to'g'ri yo'naltira oladigan murabbiydir. Shu sababli o'qituvchining psixologik kompetensiyasi uning kasbiy mahorati bilan teng darajada muhimdir. Maqolada tahlil qilinganidek, o'qituvchining emotsional barqarorligi, empatiya qobiliyati, muloqot madaniyati, motivatsiyasi va stressga chidamliligi pedagogik faoliyatning asosiy ustunlari hisoblanadi. Ushbu omillar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi, bu esa o'z navbatida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, individual yondashuvni ta'minlash, har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini inobatga olish bugungi ta'limning eng muhim talablari qatoriga kiradi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchidan yuqori darajadagi moslashuvchanlik, yangiliklarga ochiqlik va uzluksiz o'zini rivojlantirish talab etiladi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ta'lim shakllarining xilma-xilligi va o'quvchilarning fikrlash tarzidagi o'zgarishlar o'qituvchidan nafaqat pedagogik, balki psixologik jihatdan ham doimiy yangilanib borishni taqozo etadi. Bu jarayonda o'qituvchining o'z ustida ishlashi, psixologik bilimlarini boyitishi va amaliyotda qo'llashi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, o'qituvchining psixologik salomatligini saqlash ham alohida e'tibor talab qiladi. Kasbiy zo'riqish, emotsional charchoq va stress holatlari o'qituvchining faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois ta'lim muassasalarida pedagoglarni psixologik qo'llab-quvvatlash, treninglar tashkil etish va sog'lom ish muhitini yaratish zarur. Bu nafaqat o'qituvchining o'zini, balki butun ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, o'qituvchi psixologiyasini chuqur o'rganish va uni amaliyotga joriy etish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar: 1. G'oziyev.E.G. Pedagogik psixologiya. Toshkent. 2006. 2. G'oziyev.E.G. Ontogenez psixologiya. Toshkent. "Noshir" nashriyoti. – T.: 2010. 3. Do'stmuhammedova Sh.A., Nishonova Z.T. va bosh. Yosh davrlari va pedagogik

psixologiya. Toshkent. “Fan va texnologiyalar” - 2013 .

4.Tolipov

O‘., Usmonboyeva M., Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – T.: 2006.